ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XORAZM VOHASI FOLKLORI TILIDAGI MUARRABLAR

Jumanyazova Muhabbat Xusinovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Xorazm hududida yuzaga kelgan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan boy folklor an'analari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, ushbu manbalarda arab tilidan o'zlashgan bir qator leksik birliklarning mavjudligi kuzatiladi. Bu holatning tarixi VII-VIII asrlarda boshlangan muhim sivilizatsion o'zgarishlar, ya'ni arablar tomonidan Turon zaminining fathi, islom dinining kirib kelishi va arab tilining rasmiy va diniy til sifatida shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda arabiy o'zlashmalar sifatida qayd etiladigan ko'plab so'zlar aslida arabiylashgan (muarrab) so'zlar sanaladi. Muarrab معرب – klassik arab filologiyasi va tilshunosligida keng qo'llanilgan termin bo'lib, lug'aviy ma'nosi *arablashtirilgan* demakdir. Bu so'z arab tilidagi '*arraba* عرّب – *arablashtirmoq, arab (tili)ga o'girmoq, arabcha shakl bermoq* fe'lining II bobidan yasalgan ism maf'ul (o'tgan zamon sifatdoshi) hisoblanadi.

Sharq mumtoz filologiyasida muarrab termini quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlarga nisbatan ishlatilgan:

1. Asli g'ayriarabiy bo'lgan so'z: Muarrab so'zning negizi arab tilidan boshqa tilga (ajamī – ajamiy) mansub bo'ladi. Bu tillar ko'pincha fors, yunon, oromiy (suryoniy), ibroniy, habash (efiop), lotin va boshqa tillar bo'lishi mumkin.
2. Arab tili tomonidan o'zlashtirilgan va ishlatilgan so'z: Bu so'z arablar tomonidan o'zlashtirilib, nutqda faol qo'llanilgan.
3. Arab tili qoliplariga moslashtirilgan so'z: Bu eng muhim jihatdir. Muarrab so'z shunchaki o'zlashma (dakhīl – daxil) emas, balki arab tilining fonetik (tovush) va morfologik (so'z yasalishi va tuzilishi) qonuniyatlariga moslashtirilgan, ya'ni unga «arabcha tus berilgan». Bu jarayon ta'rīb تعريب – *ta'rib, arablashtirish* deb ataladi.

Ajamiy so'zni muarrabga aylantirish jarayoni, ya'ni ta'rib quyidagi o'zgarishlarni o'z ichiga olishi mumkin:

Fonetik adaptatsiya. Arab tilida mavjud bo'lmagan tovushlarni arabcha eng yaqin tovushlarga almashtirish. Masalan, forscha *p* tovushi *b* yoki *f* ga o'tishi Masalan, *pārs –> fārs*.

Forscha *č* tovushi *s*, *sh* yoki *j* ga o'tishi. Masalan, čang *–> ṣanj* صنج.

Forscha *g* tovushi *j* yoki *q* ga o'tishi. Masalan, *gund –> jund, paygām –> payqām*. Yoki *kafsh –> qafsh* قفش *(k–>q, sh->sh); sargīn –> sirjīn* سرجين *(g–>j); gāvmish –> jāmūs* جاموس *(g–>j, v–>-, sh–>s).*

Morfologik adaptatsiya. So'zni arab tilidagi mavjud so'z yasalish modellariga (avzon, vaznlar) moslash, unlilarni o'zgartirish, ba'zan undosh tovushlarni almashtirish yoki tushirib qoldirish, so'zning negizini arabcha qoliplarga solish. Masalan, *jāmūs* so'zi *fā'ūl* vazniga moslashgan. *Dīnār* (lotincha/yunoncha *denarius*) yoki *dirham* (yunoncha *drachma*) so'zlari ham shunday moslashuvga uchragan.

Semantik moslashuv. Ba'zi hollarda so'zning ma'nosi arab tilida biroz o'zgarishi yoki torayishi/kengayishi mumkin.

Muarrab so'zlar va ta'rib hodisasini o'rganish klassik arab tilshunoslari va filologlari uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Arab tilining lug'at boyligini to'liq qamrab olish, so'zlarning etimologiyasini aniqlash va izohli lug'atlar tuzishda muarrablarni aniqlash muhim edi. Abu Mansur al-Javoliqiyning *«Al-Muarrab min al-kalom al-a'jamiy ala huruf al-mu'jam»* («Ajamiy so'zlardan arablashganlarining alifbo tartibidagi [tahlili]») asari bu sohadagi fundamental tadqiqotlardan biridir.

Qur'oni Karim matnida o'zlashma so'zlarning mavjudligi masalasi qadimdan munozaralarga sabab bo'lgan. Mufassirlar va tilshunoslar Qur'ondagi ba'zi so'zlarning (mas: qisṭās قسطاس – tarozi, yunonchadan; sijjīl سجيل – loy, forschadan; firdaws فردوس – bog', yunoncha/forschadan) muarrab ekanligini aniqlash orqali oyatlarning ma'nolarini chuqurroq anglashga harakat qilishgan. Muarrablarning mavjudligi arab tilining «sofligi» haqidagi bahslarga turtki bergan. Ba'zi tilshunoslar arab tilining boyligini ta'kidlab, o'zlashmalarning ta'sirini kamsitishga urinsa, boshqalari tilning tabiiy rivojlanishi jarayonida o'zlashmalarning o'rnini e'tirof etishgan.

Quyida biz Xorazm vohasi folklori tilida, xususan, dostonlari tilida uchraydigan ayrim muarrablarni tahlilga qilamiz.

Malak مَلَك – farishta so‘zi «Qur’on»da ham birlik (*malak*), ham ko‘plik (maloyika//maloika ملائكة) shakllarida juda ko‘p uchraydi. Uning asosiy ma’nosi xudoning amriga itoat etuvchi, nurdan yaralgan, osmon mavjudotlari – farishtalarni anglatadi. Biroq, ba’zi oyatlarda (masalan, 11:72/69, 82/81; 12:31; 22:74/75) uning dastlabki *elchi* ma’nosi ham saqlanib qolganligi kuzatiladi[1]. *Malak* so‘zi umumiy semit tillariga oid bo‘lib, uning o‘zagi *l-’-k* (ل ء ك) *yubormoq, elchilik qilmoq* ma’nolarini bildiradi. Shu sababli, uning asl ma’nosi «elchi»dir. Bu so‘z ibroniy tilida *mal’āḵ* מַלְאָךְ, oromiy (suryoniy) tilida *mal’aḵā* ܡܠܐܟܐ, efiop (habash) tilida *mal’ak* □□□□ shakllarida mavjud[2]. Mumtoz arab lug‘atshunoslari ham uning *risolat* (elchilik) ma’nosidan kelib chiqqanini ta’kidlashgan[3].

Elchi ma’nosidan *farishta* (osmon mavjudoti) ma’nosiga o‘tish jarayonida yahudiylik va nasroniylik dinlaridagi farishtalar haqidagi tasavvurlar (angelologiya) katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu dinlarda ham farishtalar xudoning elchilari va xizmatchilari sifatida tasvirlanadi. «Qur’on»da farishtalar Allohning amrlarini so‘zsiz bajaruvchi (66:6), insonlarning amallarini yozib boruvchi (82:10-12), payg‘ambarlarga vahiy keltiruvchi (Jabroil misolida), Allohning arshini ko‘tarib turuvchi va Unga tasbeh aytuvchi (40:7) zotlar sifatida tasvirlanadi[4]. A.Jeffri ta’kidlaganidek, «Qur’on»dagi farishtalar konsepsiyasi yahudiy-nasroniy an’analari bilan uzviy bog‘liq[5].

Arab tilidagi ko‘plik shakli *malā’ika* ملائكة siniq ko‘plik («jam’ taksir») namunasidir.

Ushbu so‘zning Xorazm vohasi folklor materillaridagi ma’no qirralarini bir necha misol orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, «Tohir va Zuhro» dostonidan: «Zuhra qiz nolish qildi, ins-jinslardan vahiy keldi falakdan *malaklar* nola qildi: – Dargohi iloho, yo parvardigoro! Bu ikki oshiqqa o‘zing rahm et! – deb nola qilib arz etdilar»; «Go‘ro‘g‘li» dostonidan: «Isrofil, Isroil, malak Makoyil, Ka’bam Madinamni ziyorat etsam»; «Go‘ro‘g‘li» turkumidan «Shu’langiz to‘xtatar to‘lishgan oyi, Yoninda Gulshirin – malaklar mohi,..»

Birinchi parchada *malaklar* (ko‘plikda) osmon (falak) ahli sifatida, ilohiy dargohga yaqin mavjudotlar guruhini anglatadi. Ular shunchaki kuzatuvchi emas, balki yerdagi fojiaga (Zuhraning nolishiga) hamdardlik bildiruvchi, hissiy javob qaytaruvchi (nola qiluvchi) va vositachilik qiluvchi (Allohga arz etuvchi) sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning nolasi insoniy dardning koinot miqyosiga chiqqanini ko‘rsatadi. Demak, bu o‘rinda malaklarga hamdardlik, shafqat va vositachilik qobiliyati nisbat berilmoqda.

Oshiqlarning iztirobi shu qadar kuchliki, u nafaqat ins-jinslarni, balki falakdagi malaklarni ham larzaga soladi. Bu holat voqeaning ahamiyatini va qahramonlar dardining chuqurligini oshiradi. Ishq mavzusi ilohiy darajaga ko‘tariladi – oshiqlar taqdiri uchun farishtalarning o‘zi qayg‘urmoqda. Farishtalarning nolasi oshiqlar fojiasining ta’sir kuchini badiiy jihatdan bo‘rttirib ko‘rsatadi.

Ikkinchi parchada *malak* so‘zi muayyan bir farishta – Makoyil (Mikoil) nomi oldidan kelib, uning mavqeyini, tabiatini belgilovchi sifat yoki unvon vazifasini bajarmoqda (*malak Makoyil*). Bu yerda gap umumiy farishtalar haqida emas, balki islom ta’limotidagi alohida vazifalarga ega bo‘lgan, yuksak martabali, qudratli bosh farishtalar (*Isrofil, Isroil/Azroil, Mikoil*) haqida ketmoqda. Ularning nomlarini zikr etish muqaddas kuchlarga murojaat qilish, ularning madadini so‘rash mazmunini beradi.

Malak so‘zi Makoyilning kimligini ta’kidlovchi doimiy epitet vazifasini o‘taydi. Yirik farishtalar nomini zikr qilish duo yoki niyatning ilohiy maqomga ega ekanligini, uning ijobati uchun eng yuksak kuchlarga murojaat qilinayotganini ko‘rsatadi. Muayyan ismlarning ketma-ket sanab o‘tilishi duolarga xos ritmik ohangni yaratadi. Bu farishtalarning nomini tilga olish ularning himmatidan umidvorlikni, niyatiga (Ka’ba va Madina ziyoratiga) baraka tilashni anglatishi mumkin.

Uchinchi parchada malaklar so‘zi go‘zallikni tasvirlashda eng yuksak mezon, ideal timsoli sifatida keltirilgan. Gulshirinning go‘zalligi shu darajadaki, u *malaklar mohi* (farishtalarning oyi, ya’ni farishtalar ichidagi eng go‘zali, eng porlog‘i) deb ta’riflanmoqda. Bu yerda malaklar o‘zlarining pokligi, nuroniyligi, osmonga mansubligi va beqiyos go‘zalligi bilan assotsiatsiya qilinadi. Ular endi faol harakat qiluvchi personajlar emas, balki go‘zallikni o‘lchash uchun xizmat qiluvchi mavhum etalondir. Gulshirin «malaklar mohi»ga tenglashtiriladi. Bu uning go‘zalligini yerdagi oddiy mezonlardan yuqori, ilohiy darajaga ko‘taradi. Sevikli yorning go‘zalligini farishtalarning oyiga qiyoslash orqali uni haddan ziyod ulug‘lash, ideallashtirish kuzatiladi. Ma’shuqani ideallashtirish uchun eng pok va go‘zal deb hisoblangan malaklar

[1] Jeffery, Arthur. The Foreign Vocabulary of the Qur’ān. Baroda: Oriental Institute, 1938. – PP. 268-269.
[2] Encyclopedia of Islam, Second Edition, s.v. «Malā’ika»
[3] Ibn Manzur, Lison al-arab, l-a-k moddasi.
[4] McAuliffe, Jane Dammen, ed. Encyclopaedia of the Qurʾān. 6 vols. Leiden: Brill, 2001–2006. s.v. Angels.
[5] Jeffery, Arthur. The Foreign Vocabulary of the Qur’ān. Baroda: Oriental Institute, 1938. – P. 269.

obrazidan foydalanilgan. Nuroniylik, soflik, oliy darajadagi go‘zallik tasavvurini uyg‘otadi.

Shayton شَيْطَان leksemasi. Artur Jeffri o‘z tadqiqotida *shayton* so‘zining Qur’onda keng qo‘llanilishini va uning qadimiy semit tillariga borib taqalishini ta’kidlaydi. Bu so‘z ibroniychada *śāṭān* שָׂטָן, oromiy (suryoniy) tilida *sāṭānā* ܣܛܢܐ va efiop (habash) tilida *saiṭān* □□□□ shakllarida mavjud bo‘lib, dastlabki semantikasi *dushman, raqib, ayblovchi, bo‘htonchi* ma’nolarini anglatgan[1].

A.Jeffri bu so‘zni arab tiliga o‘zlashgan deb hisoblaydi. Uning arab tiliga kirib kelish yo‘llari haqida turli qarashlar mavjud. Nyoldeke (Nöldeke) kabi olimlar uning efiop tili (saiṭān) orqali kirib kelganini taxmin qilishadi, chunki arabcha *shayton* shakli efiopcha shaklga yaqinroqdir. Boshqa olimlar, masalan, Frenkel (Fränkel) esa uning ibroniy yoki oromiy tillaridan o‘zlashganini qayd etadilar. Olim so‘zning keng tarqalganligini hisobga olib, uning arab tiliga yahudiy yoki nasroniy manbalar orqali kirib kelishi ehtimolini yuqori deb baholaydi.

Masalan, «Malikai Dilorom» dostonida o‘qiymiz:

Jumla malak saf-saf turib muntazir,
Barchasi odamning husniga nozir,
Rahmat daryoyini aylabon zohir,
Sajda qil deb anga farmon aylading.
Jumla malak sajda qildi shul zamon,
Odam uchun sajda qilmadi shayton,
Tavqi la’nat tushib bo‘ldi pushaymon,
Dargohingdin quvlab giryon aylading.

Ushbu parchada *shayton* so‘zi ikkinchi to‘rtlikning ikkinchi misrasida («Odam uchun sajda qilmadi shayton») markaziy o‘rin tutadi. Gapda ega vazifasida kelib, *sajda qilmadi* fe’li bilan ifodalangan harakatning bajaruvchisi emas, balki bajarmagan subyekti sifatida qatnashmoqda. Bu yerda *shayton* so‘zi shunchaki yovuz ruhni emas, balki islomdagi bosh yovuzlik timsoli, ya’ni Odamga sajda qilishdan bosh tortishdek aniq bir harakatni sodir etgan Iblisning o‘zini ifodalamoqda. Garchi Iblis nomi keltirilmagan bo‘lsa-da, tasvirlanayotgan voqea (farishtalarning Odamga sajdasi va bir mavjudotning bosh tortishi) Qur’ondagi aynan Iblis bilan bog‘liq qissadir. Demak, bu kontekstda *shayton* leksemasi Iblisning nomi yoki asosiy unvoni vazifasini bajarmoqda. Shaytonning harakati («sajda qilmadi») avvalgi misradagi farishtalarning harakatiga («Jumla malak sajda qildi») to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi qo‘yilgan. Bu ziddiyat orqali uning itoatsizligi va isyonkor tabiati keskin ajralib turadi. Keyingi misra («Tavqi la’nat tushib bo‘ldi pushaymon») shaytonning sajdadan bosh tortishining to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqibati – la’natga uchrashini ko‘rsatadi. Bu esa uning madaniyatdagi *la’natlangan* obrazini mustahkamlaydi. *Shayton* so‘zining ushbu she’riy parchada qo‘llanilishi shunchaki leksik tanlov emas, balki chuqur madaniy-diniy ma’nolarga ega.

Shayton so‘zini eshitish yoki o‘qish bilanoq, islom madaniyati vakili bo‘lgan tinglovchi, o‘quvchi ongida Qur’on qissalari, diniy ta’limot va xalq og‘zaki ijodida shakllangan Shayton obrazi bilan bog‘liq butun bir assotsiatsiyalar majmuasi faollashadi: itoatsizlik, takabburlik (kibr), hasad, Allohning amriga qarshi chiqish, insoniyatning azaliy dushmani, vasvasa qiluvchi, la’natlangan mavjudot. Matndagi «sajda qilmadi shayton» misrasi aynan shu madaniy kodning negizi bo‘lgan voqeani esga soladi.

Islom madaniyatida Shayton ilohiy irodaga qarshi chiqqan mutlaq yovuzlik va isyonkorlik arxetipi hisoblanadi. Matn bu arxetipning eng birinchi namoyon bo‘lishini – uning «tug‘ilishi»ni tasvirlaydi. Bu orqali dostonning keyingi voqealarida uchraydigan yovuzliklar, vasvasalar va sinovlarning manbasiga ishora qilinadi.

Dostonlar ko‘pincha axloqiy-tarbiyaviy maqsadlarni ko‘zlaydi. Shayton obrazi va uning itoatsizligi oqibati (la’nat, dargohdan quvilish – «Dargohingdin quvlab giryon aylading») tinglovchiga takabburlik va Allohning amriga bo‘ysunmaslikning oqibatlari haqida saboq beradi. Bu o‘zbek (va umuman musulmon) jamiyatidagi axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muarrablar Xorazm folklori matnlarida chuqur lingvomadaniy mazmunni tashiydi. M*alak, Shayton* kabi diniy-mifologik leksemalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu birliklar islom madaniyatiga xos qadriyatlarni, dunyoqarashni, axloqiy me’yorlarni aks ettiruvchi madaniy kodlar vazifasini o‘taydi; ular personajlarga baho berish, didaktik g‘oyalarni singdirish va tinglovchining madaniy xotirasini faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Rezyume. Mazkur maqolada Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar tadqiq qilinadi. Unda muarrab - aslida arabiylashgan so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatiladi hamda Xorazm vohasi folklori tilida, xususan, dostonlar tilida uchraydigan ayrim muarrablar tahlil qilinadi. Bu muarrablarning lingvomadaniy mazmunni ifodalashlari ta’kidlanadi.

Резюме. В статье рассматриваются муаррабы в фольклорном языке Хорезмского оазиса. Показаны специфические особенности муаррабов – по сути арабизированных слов – и проанализированы

[1] Jeffery, Arthur. The Foreign Vocabulary of the Qur’ān. Baroda: Oriental Institute, 1938.– P. 189.

некоторые муаррабы, встречающиеся в фольклорном языке Хорезмского оазиса, в частности, в языке эпосов. Подчеркивается, что эти метафоры выражают языковое и культурное содержание.

Resume. This article studies the muarrabs in the folklore language of the Khorezm oasis. It shows the specific features of muarrabs - essentially Arabicized words, and analyzes some muarrabs found in the folklore language of the Khorezm oasis, in particular, in the language of epics. It is emphasized that these muarrabs express linguistic and cultural content.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QO‘NG‘IROT ETNONIMINING FONETIK-FONOLOGIK VARIANTLARIDA SEMANTIK TAFOVUT

Kurbanazarova Nargis Shodiyevna,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Etnonimlar etimologiyasini aniqlashda fonetik jihat muhim hisoblanadi. Chunki bir tovush farqlanishining o‘zi ham so‘z ma’nosini o‘zgartirishi, yangilashi mumkin. Fikrlarimizni misollar tahlili asosida davom ettiramiz.

Qo‘ng‘irotlar tarkibidagi *vaxtamg‘ali* urug‘ining *uyuvli* tarmog‘i nomlanishi jihatidan bir qancha variantlarga ega. Fonetik tafovutlar bilan ifodalangan shakllarida mazkur urug‘ quyidagi ko‘rinishlarga ega.

Toponimist olim S.Qorayev Toshkent viloyatining Bekobod tumanida *uyuvli* qishlog‘i borligini qayd etar ekan, mazkur toponim o‘zbeklarning *do‘rmon, qo‘ng‘irot* qabilalari tarkibidagi ***uyuvli*** urug‘i asosida shakllanganligini qayd etadi[1].

Aynan shu urug‘ Surxondaryo viloyati hududida ham uchraydi. Xususan, Kampirtepa qishlog‘ida, asosan, vaxtamg‘ali qo‘ng‘irotning *uyuvli* urug‘iga mansub kishilar yashaydi. O‘zbeklarning boshqa urug‘lariga mansub oilalar yo‘q darajada. O‘z o‘rnida vaxtamg‘ali tarmog‘i *bug‘a jili, oboxli, irg‘oqli, qaychili, qozoyoqli, qoraqo‘ng‘irot,* ***uyuvli (uyikli)****, chanchiqli, boymoqli, achamayli, taroqli, uchchuli* kabi o‘n olti uruqqa bo‘linadi. Uyuvli son jihatdan vaxtamg‘alining eng ko‘pi hisoblangan va boshqa urug‘larga nisbatan ustunliklarga ega bo‘lgan. Uyuvlilar ham yana *xirri, jaltir, orqasido‘ng, oqto‘nli, avlochagir, tuvma (tug‘ma), o‘tap, konchi* kabi ichki dahalarga ajraladi. Uyuvli urug‘ining ustunligini ko‘rsatuvchi:

Uyuvlida o‘ttiz bek,
Eng kichigi Nodirbek.
Oyinni to‘p bo‘lmasin,
Uyuvli ko‘p bo‘lmasin. – kabi hikmatlar hozirgi kungacha xalq tilida qo‘llaniladi va suhbatlarda tez-tez takrorlanib turadi[2].

Yuqorida nomi keltirilgan *uyuvli (uyikli)* urug‘i boshqa bir manbada *o‘yuvli* tarzida uchraydi: «Kampirtepada azaldan yashab kelayotgan dahalar: *konchi, tuman oqto‘nli, avlodchagir va yelkasi do‘ng* bo‘lib, ular qo‘ng‘irot urug‘ining vaxtamg‘ali bo‘limiga mansub ***o‘yuvli*** urug‘idandir. XVIII asrning ikkinchi yarmlarida Kampirtepada *boyavlod, o‘tab va tuvma* urug‘lari vujudga kelgan»[3].

Aynan Kampirtepa toponimi tarixiga bag‘ishlangan yana bir manbada boshqa bir shakl uchraydi: «Konpurtepa qishlog‘ida qo‘ng‘irot qabilasining ***oyuvli (vo‘yuvli, uyuvli)*** urug‘iga mansub kishilar qadim davrlardan yashab keladi. Ularning ota-bobolari asl shu tuproqning haqiqiy egalaridir. Oyuvlilar qa-

[1] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B.147.
[2] Хўжамбердиев Ё. Сурхондарё вилояти кўҳитангтоғ ва тоғ олди микротопонимлари луғати. – Термиз, 2012. – B.87.
[3] Абдураҳмонов Ж (Жўра Ғулом). Сулола. – Термиз, 2024. – B.108.